

BAXTIM SHUL O'ZBEKNING ZULFIYASIMAN...

*Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti talabasi
Nurillayeva Munisa*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bahor kuychisi, o'zbek ayolining sadoqat va matonat, metin iroda timsoli bo'lgan Zulfiya Isroilovanning she'riyati, hayot yo'li, ijodining mavzu ko'lami, obrazlar tizimi haqida so'z boradi. Uning adabiyot olamida tutgan o'rnining beqiyosligi, adabiyot gulshanining gultoji ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Zulfiya yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun, baxti uchun mardonavor kurashgan ayoldir. U she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir, albatta.

Kalit so'zlar: mavzu, g'oya, kechinma, vafo, mavzu ko'lami, obrazlar tizimi.

Ayni zamonda, ayni soatda, ayni soniyada tug'ilgan go'dakning shu zamon va soniyadagi butun dunyoning ishlariga daxldorligi bo'ladi. Chunki odamzod bitta, tole va quyosh bitta. Ishonmasangiz, istagan vaqtda osmonga qarang: hammasi ko'rinib turibdi. Ichki ko'zlar barini to'xtovsiz ilg'aydi. Har birimizning yorug' olamga kelishimizdan ketishimizgacha tasodifmikin? Tasodiflar qo'shilib, birlashib qonuniyatga aylanmasmikin? Shoir Zulfiyaning dunyoga kelishi, shoir va xalqaro miqyosdagi jamoat arbobi bo'lib yetilishi tasodifmikin?

Ko'hna Shoshning eng qadimgi hunarmandlar va ziyolilar o'chog'i – O'qchilar mahallasida katta fayziyob xonadonda qalin qora jingalak sochli qizaloq tug'ilganda sana 1915 yil 1 mart edi. Bunday jingalak qora sochli bola tug'ilganda atrofdagi barchaning yuzi yorishib, quvonchlaridan lablarini yig'ishtirmay, barobar: "Qo'zichoq tug'ildi!" – deydilar. Chaqaloqning onasi Xadicha aya biroz mashaqqat chekkan bo'lsa-da: "Voy, bolam nomi bilan tug'ildi, sochlarining qo'ng'iroqlarini qarang... Zulfizar bu, Zulfizar!" – deb juda ohangdor qilib aytdi. Uning ismini Zulfiya qo'ydilar.

Zulfiya nur to'la, uchqun to'la muhitda dunyoga keldi va shular bag'rida o'sdi, xayollari shulardan quvvatlandi. U shu muhitning tug'ma g'oyalariga bag'irdosh edi. Shuning uchun uning tashbehlari nur, uchqun, o't-olov, chaqmoq... zahirida tug'iladi. Zulfiyaning she'riy energetik komplekslari shular. Istagan she'ringizda bular badiiy oqim maqomida. Hayot va ijodda shaxsning o'rniga juda katta ahamiyat berib qaragan personalistlar sharoitni yengib chiqish, sharoit taqozo etgan shartlarni yengib o'tish san'at shaxsiyatining eng yuksak faolligidir (Nedonsel), deyishadi. Zero, Zulfiyaning

faolligi – she’riyat va, o‘z navbatida, she’riyatning faolligi – shaxsiyat. Uning she’riyatining har qatorida she’r yaratuvchi qiyofa turadi, har qatorda qiyofa shakllanadi va bu qiyofa har damda hayotiy butunlik sari harakatlanadi. Butunlik sari harakat Zulfiya ijodiyotining insoniy, badiiy falsafasidir. Butunlikni, ya’ni odamning o‘zini to‘la odamday his qilishi va to‘la odamday ish qilishini falsafa deyish mumkinmi? To‘rt tomondan hayot chegaralanganda butunlik hissi bo‘ladimi? Butunlik moddiy, butunlik jismoniy, butunlik ruhoni, Zulfiya she’riyatida bular g‘oyalar kompleksiga aylanib ulgurgan. Shaxs g‘oyasi ijod g‘oyasi bilan chambarchas bog‘langan. Ijod g‘oyasi Zulfiya borlig‘ining asosi: “She’r bo‘lib el ichra yuraman men chaqnoq”. Butunlikka to‘siq bo‘luvchi, uni parchalovchi kuchlar ham mudom mavjud va bular she’riyatning mangu ziddiyatlarini yuzaga chiqaradi. Yigirmanchi yillarning boshi va birinchi yarmida xotin-qizlar bilim yurti (dorilmuallimot) deb atalgan ilk o‘quv dargohlarida oz sonli qizlar qatorida bilim olgan mashhur Oydin Sobirovalar (yozuvchi, shoira, jamoat arbobi Oydin) davrida o‘zbek xotin-qizlari zulmatdagi mazlumalar deb atalar va ularning sotsialistik baxtiyorlikka intilayotgani va hatto erishgani har qadamda qattiq ta’kidlanardi. Oydin Sobirova erkiga erishgan xotin-qizlar timsoli kabi taqdim, targ‘ib va tashviq qilinardi. Oydin Sobirova ham shu ijtimoiy teatr sahnasidagi rolni to‘la qabul qilib o‘zlashtirgan, uni muvaffaqiyat bilan o‘ynar va bu o‘ziga ham juda yarashar va yoqardi. Zulfiya 1931 yilda xotin-qizlar bilim yurtiga o‘qishga kirganda, (bilim yurti ularning O‘qchi mahallasida joylashgan edi), bilim yurtini bitirgach va to qirqinchi yillarning yarmigacha, asosan, Oydin Sobirovaning ta’sirida bo‘ldi va unga shogird ekanligidan faxrlanardi. Lekin o‘ttizinchi yillarda endi yigirmanchi yillardan farqli o‘laroq, Zulfiya kabi yangroq qizlar zulmatdan chiqqan, mazlumalik paranjilari, parangi-chachvon ichidagi qoloqliklardan qutulgan, baxtiyor nurli kelajak sari dadil odim otayotgan hisoblanardilar. Zulfiya shu davr ijodini eslashni yoqtirmaydi, balki sotsialistik erk ichida yangi tushdagi erksizlik zanjirlari qo‘yilganligini u o‘ta zukkolik bilan fahmlab qolgan edi. O‘sha davrdagi fikrlovchi shaxsiyatlarning juda ko‘p ziddiyatlari, asosan, shundan – yangi mafkuraning munofiqliklaridan kelib chiqardi. Va qanchalab asl jonajon ayollar bunaqa taraqqiyotni qabul qilishni istamaganliklari uchun jazo koloniyalariga tortildilar, taqdirlari mahv etildi. Zulfiya Oydin Sobirova izidan borib nashriyotda ishladi, akademiya aspiranturasida o‘qidi. 1932 yilda Zulfiyaning taqdirida burilish boshlandi. U Hamid Olimjon, Uyg‘un, G‘afur G‘ulom, Oybek, Muzayyana Alaviya bilan yaqindan tanishdi, ilk she’rlari bilan yozuvchilar davralariga kirdi. Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Uyg‘un adabiyotda hayqiriq solgan yillar edi. Ularga ergashdi. Ular tiyrak va o‘ta tuyg‘un qizchaning intilishlarini bajonidil qo‘llab-quvvatladilar. Zulfiyaning zakovati kuchli edi. Qo‘llov uning tug‘ma talantini ochdi.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Gafurov Zulfiya isroilova haqida ana shunday fikrlarni bildirib o‘tadi. Shoiraning metin matonati, tog‘dek bardoshiga

tahsinlar aytadi.

1935-yildan 1980-yilgacha, qariyib o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida "Hayot varaqalari" deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani o'ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo'lgan holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Shoira sherlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rар edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan..."

Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun – ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovoqidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilisjiiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostona hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg'otgan..."

Shoira Zulfiyaxonim o'z xotiralarida turmush o'rtog'i va o'tgan kunlarini shunday xotirlaydi:

"Bu yillarda mening hayotimga yana bir quvonch to'lqini kirdi. Bu – Hamid Olimjon edi... Hamid Olimjon mening uchun talabchan ustoz, mehrli do'st edi. She'rlarimni ilk bor hayajondan titrab unga o'qirdim. U ayovsiz tahrir etardi. Yillar o'tdi, yillarning biri bilan qo'shilib Hamid Olimjon ham o'tdi... So'ng hayotimga yo'llar kirib keldi..."

Quyoshdan to'kilganman

Ushlay olaman o'tni –

deydi Zulfiya. Tug'ma g'oyalarga hayratlanmay ilojing yo'q. Bu g'oyadan u so'nggi damgacha voz kechmadi: “Sakson yil lovullab so'nmagan o'tman”, dedi u oxirida.

Zulfiya xayol bilan qalin do'stlashgan va mudom xayol dunyosiga g'arq edi. Savdo-sotiq, bozor dunyosi uni hech qachon qiziqitirmagan, qachon biron do'kon ostonasiga qadam qo'yganligini ham eslolmasdi.

Zulfiyani qiynagan, azoblarga qo'ygan narsa: u hech qachon o'tmish yuklaridan qutulolmasdi, bu yuklarning zalvori doim yelkalarini ezib yotar va bir zum ham o'z iskanjasidan bo'shatmasdi. Ota-onadan ayrilish, azamat akalarining dog'i-hijroni, go'zal singlisi Buvinisaning alamli o'limi, talaba ukasining hech kutilmagan halokati, ayniqsa, 1944 yilda suyukli umr hamdami Hamid Olimjonning falokatga uchragani hayotsevar ayolning qalbida hech o'chmas chandiqlar qoldirdi. Bu chandiqlar vaqt o'tib bitganday bo'lsa ham, tinimsiz og'rirdi. Nega deganda, Zulfiya ularning hammalarini behad sevardi, hayotini ularsiz tasavvur qilolmasdi. Ular ulkan sevgi va mehrga arziydigan odamlar edilar. Bu ayriliqlar azobini yanada kuchaytirardi. Zulfiyaning real hijron va ayriliq azoblari, dardlari haqida yozganlari allaqachonlar uning tarjimai holining intim doirasidan toshib chiqib ketgan va tor doiraga mutlaqo sig'may qolgan. Shoiri ijodining juda ko'p qismida ayriliq, hijron, armon mavzusi yetakchilik qiladi. U o'zining “Sensiz” she'rida:

Mana bir umrni yashadim sensiz,

Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,

Tobuting oldida cho'kkanimda tiz,

Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

misralari orqali umri davomida shodliklarining qaytmasligini bilsada, lekin bir ilinj umidida yashayotganligini, yillar, o'sha soniyalar ko'z oldida qayta va qayta namoyon bo'laverishini ifodalaydi. Zulfiyaning “Sensiz” she'ri 1970 yilda yozilgan. Mazkur she'rni shoiri hayotidagi fojining bevosita aks-sadosi deyish qiyin, chunki oradan chorak asrdan ko'proq vaqt o'tgan, oddiy tasavvurlarga ko'ra, har qanday g'am-alam unutilishi uchun yetarli fursat kechgan. She'ring ohista boshlangan dastlabki misralari ham shuni tasdiqlaganday bo'ladi: “Mana bir umrni yashadim sensiz, Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib”. O'quvchi ilk misralarning ma'nosini chaqib, ular zamiridagi go'zallikni ko'ra olsa, quyidagilarni kashf etgan bo'lardi: shodliklar oshiq bilan qabrga kirgan, shu bois qaytmas, lirik qahramon buni juda chuqur his etadi. Ammo u umidvor inson, baribir qandaydir mo'jiza yuz berib yorining qaytishini kutaveradi. Shu taxlit aldamchi umid bilan butun bir umr yashab qo'yilibdi! Shuning o'zi – bir insonga yetgulik fojia. Ammo she'rdagi fojiaviy ohang misrama-misra yanada yuksalib boraveradi. Chunki lirik qahramonning yarador qalbini baxt ham,

bahor ham, qish ham qiynaydi. Negaki, birovning baxti o‘zining baxtsizligini esiga soladi, yorning sevgan fasli bahor qaytib kelaveradi, bahorni sevuvchi insonning o‘zi esa yo‘q. Qish – og‘ir kechadigan fasl, shu bois bari- bir bahorni – yo‘qotilgan sevgini esga tushiraveradi. Qayg‘uga ham befarq bo‘lolmaydi, zotan, har qanday insonning har qanday qayg‘usi qahramon qayg‘usiga o‘xshash, hamohang!

U seviklisini unuta olmaydi, esdan chiqarishga urinsa ham, buning uddasidan chiqolmaydi. Va ay-riliqdan hadsiz qiynalib ketganlarida xayolan yoridan so‘raydi: “Tirik ekan nega tashlab ketmading?” Bu misra – suygan odamning ilojsizlikdan, muhabbat va ayriliq qarshisidagi ojizlikdan bildirgan noroziligining avj ifodasi. Shundan keyingi misralarda yorning tirikligida shoirani tashlab ketishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan xayoliy go‘zalning sifatlari keltiriladi. Shoiraning tasviricha, suyganidan tiriklikda ayrilganda, keyingi hijron bu qadar og‘ir kechmagan bo‘lard!

Lirik qahramonning tuyg‘ulari – pokiza. U biladi hijron azobli, tirik turib ayrilish har nedan qiyin, lekin sevgan kishisining hayoti uchun har qanday azobga-da tayyor: “Bilardim, qaydadir olasan nafas”. Shoira tuyg‘ular tasviri maromini buzmaydi. Lirik qahramon sevgisi rad etilgan har qanday ayol singari: “Bilaman, rashk meni etardi halok, Afzal ko‘rganingni qarg‘ab o‘tardim”, – degan so‘zlari bilan o‘zining bir ayol sifatidagi asl tuyg‘ularini ochiq aytadi. Jonidan ortiq yaxshi ko‘rgan kishisining qandaydir boshqa birov bilan qaydadir nafas olishini his qilish qahramon uchun oson emas. Garchand, u bugunga kelib, qaytarilmas yo‘qotishlar qarshisida shunga ham rozi esada. Shu bois u nega tirikligingda tashlab keta qolmading, ayriliqni kechirish osonroq bo‘larmidi deb iddao qiladi.

Zulfiya she‘rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko‘pincha so‘nggi bandda beriladi. Lirik qahramon o‘z qismatining taxirligidan nolib kelar ekan, tuyg‘ular junbushi borgan sari yuksalib boraveradi. So‘nggi bandda, nihoyat, shoira tan oladi: “Ma’-yus taqdiringga yashab men sherik, Mushkul bo‘layotir shodlik yaratmoq”. U yorning qismatisiz, uning ma’yus taqdiriga sherik bo‘lmasdan yashay olmaydi. Noravo hayot esa undan “shodlik yaratishni” talab etadi. Shu bois lirik qahramon suyganidan norozi bo‘ladi, shu sabab alam bilan unga murojaat etadi: “Nega tirik ekan tashlab ketmading, Tashlab ketmading-sa boshlab ketmading?!” Lirik qahramon holatining, tuyg‘ulari ko‘lamining yorqin ifodasi she‘rning so‘nggi ikki misrasiga go‘zal joylangan. She‘rning eng so‘nggi qatorida “ekansan” so‘zining “sa” tarzida o‘ta qisqartirib berilishi ham, -sa shakli tufayli jumla qurilishidagi o‘zgarishlar ham qahramon ruhiy holatini quyuqroq ifodalashga, tasvirning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Zulfiya haqida gap ketganda uning zamondoshlari, shoir, yozuvchi, adabiyotshunoslar juda mamnuniyat bilan tilga olishadi, xotirlashadi. Jumladan O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov: “Zulfiya singari siymolar xalqning baxti bo‘lib yaraladilar. Bu baxt avvalo o‘zbekniki, O‘zbekistonniki, so‘ngra

esa dunyoniki”- deb yozadi.

Chindan ham Zulfiya o‘zbek baxtining yorqin timsolidir. "Yaxshi she'r mudrab yotgan ruhiyatni uyg'otadi. Tongning nafasidek ko'ngilga xush yoqadi. Ko'klam havosidek bahru dilingizni ochib yuboradi. Har yili erta bahorda ikki bog'lam binafsha ko'tarib, o'zbekning sevimli shoirasi Zulfiyaxonim haykali qoshiga borar ekanmiz, beixtiyor qalbga yaqin misralari jaranglaydi:

Hamon e'tiqodim – haqiqat, haqdir,
So'zlayman yuzimni tutib Ka'baga.
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.
E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,
Asli Siz oftobim, men ziyosiman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,
Baxtim shul – O'zbekning Zulfiyasiman.

Ona yurt, sevgi, bahor madhiga yo'g'rilgan bu satrlar nurlangan har bir ko'ngil hamisha shunday samimiy izhorlarga mushtoq. Tug'ilgan go'shaga ko'ngil rishtalari bilan bog'lanib, shukronalik hissini tuyish ijodkor uchun qanchalik baxt bo'lsa, kitobxon uchun ham farahlidir.

Ko'klam va baxt jarchisi, tong kuychisi Zulfiyaxonim she'rlarini o'qiganda tongning oq alangasi, qirovli maysalar nafasi, kumush nurlar jarangi, qor tagidan bosh ko'targan binafshaning ifori dimog'imizga uriladi. Shoira bahorda tavallud topgani uchun tabiat manzaralari hayoti, taqdiriga uyg'unlashib ketgan."

Zulfiyaning butun she'riy ijodi — O'zbekiston diyorining ilhom madhiyasi, inson mehnati madhiyasi, sevgi va yerdagi adolat uchun madhiyasidir. Zulfiyaning qoyilmaqom ijod mehnatiga ko'p yillar bo'ldi, respublika hayoti va uning xalqi taqdirida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, lekin "sevgining alangali kuchi bugun ham o'quvchining qalbini isitadi, yuragini va ongini hayajonlantiradi". Ayniqsa Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ta'sis etilishi ham shoira ijodiga berilayotgan e'tibordan dalolatdir. Zulfiya Respublika Davlat Mukofoti sovrindori, O'zbekiston xalq shoirasi, xalqaro "Nilufar" mukofoti, Mehnat Qahramoni unvoni va "Do'stlik" ordeni sohibnasidir. Zulfiyaning hizmatlari munosib taqdirlangan. Shoira 1985-yilda Mehnat Qahramoni unvoniga, 1965-yilda "O'zbekiston xalq shoirasi" unvoniga sazovor bo'di. 1994-yilda Zulfiya mustaqil respublikamizning "Do'stlik ordeni bilan mukofotlandi. Zulfiya o'ziga xos ijodkor. Uning o'z tili, o'ziga xos uslubi bor. Teran fikrlovchi shoira Zulfiya hayot haqida o'ziga xos tarzda poetik fikr yuritdi va o'z asarlarini falsafiy mazmun bilan bezadi. Zulfiya lirikasi rus, ukrain, qozoq, ozarbayjon, tukman, qoraqalpoq, ingliz, hind, afg'on, arab, chex, polyak, bolg'ar, venger, mo'g'ul,

fransuz va nemis kitobxonlari tomonidan ham o'qilyapti. Shoir mavzu va goyaviy yo'nalishi rang-barang bo'lgan she'rlarida o'zining etuk iste'dod egasi ekanligini namoyon etgan. She'rlarida qo'llanilgan tasvir usullari va vositalari, badiiy obrazlar tuyg'u va kechinmani o'ziga xos tarzda tasvirlashga yo'naltirilgan. Zulfiya hayoti va ijodini o'rganish o'quvchilarda insoniy fazilatlarni yuksaltirishga katta yordam beradi. Shunday ekan shoir ijodi mavzu ko'lami va mohiyati jihatdan salmoqdordir."

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1".Xalq so'zi "gazetasi 2020-2
- 2."Sharq yulduzi" jurnali, 2015-1
- 3."Darakchi" "Zulfiya zamondoshlari xotirasida"